

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Turli tuproq-iqlim hududlari uchun mos, hosildorligi yuqori va iste‘mol sifati yaxshilangan mahalliy kartoshka <i>Solanum tuberosum</i> navlarini yaratish va ularning davlat nav sinovini o‘tkazish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - turli agroiklim hududlarida moslashtirilgan, yuqori hosil beradigan, kasalliklarga chidamli, iste‘mol sifati yuqori bo‘lgan yangi mahalliy kartoshka navlari yaratiladi, ular Davlat nav sinovidan o‘tkaziladi va amaliyotga joriy qilinadi; - O‘zbekistondagi tuproq-iqlim hududlarini o‘rganish va kartoshka uchun eng muhim agrobiologik talablarni aniqlash, seleksiya jarayoni uchun genetik manba (ota-onalik shakllar) tanlash, chatishtirish, klon tanlash, ko‘paytirish bosqichlarini amalga oshirish, stress omillarga (issiq, qurg‘oqchilik, sho‘rlanish) chidamlilikni baholash, kasallik va zararkunandalarga (alternarioz, fitoftoroz, nematoda) chidamlilikni aniqlash, hosildorlik, bozorboplik, saqlanish sifati, pishish davri kabi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshiriladi; - yangi navlar Davlat nav sinoviga topshiriladi va hududlar bo‘yicha sinov o‘tkazilib, eng yaxshi natija ko‘rsatgan navlar ro‘yxatdan o‘tkaziladi va amaliyotga tavsiya qilinadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.